Xayriya pullari o’tkazib berildi

Avval xabar qilganimizdek, Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborida yuz bergan baxtsiz hodisa sababli jabr ko’rgan vatandoshlarimizga yordam berish va qo’llab-quvvatlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari, xodimlari, olimlar tomonidan insonparvarlik yordami jo’natilgan edi hamda FA tizimida xayriya marafoni tashkil qilingandi.

Ushbu xayriya marafonida yig’ilgan 125 mln.so’m pul mablag’i Sirdaryo hokimligi hisob raqamiga o’tkazib berildi.